

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

4-kurs talabasi Djumaniyazova Umidaning  
5111700 – “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun


# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “3-sinf matematik ta'limida arifmetik amallarni o'rganish metodikasi”

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Sabirov Sardor.





## **Mavzu: 3-sinf matematik ta'limida arifmetik amallarni o'rganish metodikasi**

### **Reja:**

#### **Kirish.**

#### **I. BOB. Boshlang'ich ta'limni o'qitish va tashkil qilishning nazariy va didaktik asoslari.**

1.1 Boshlang'ich ta'limning tashkil qilinishi.

1.2 Boshlang'ich matematik ta'limni tashkil qilinishi va undagi arifmetik amallarni bajarishning nazariy asoslari.

#### **II. BOB. 3-sinf matematik ta'limida arifmetik amallarni o'rganish metodikasi.**

2.1 Minglar konsentrida qo'shish amalini o'rganish metodikasi.

2.2 Minglar konsentrida ayirish amalini o'rganish metodikasi.

2.3 Minglar konsentrida ko'paytirish amalini o'rganish metodikasi.

2.4 Minglar konsentrida bo'lish amalini o'rganish metodikasi.

#### **III. Xulosa**

#### **Ilova**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**



## Kirish.

### **Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va ishlanganlik darajasi.**

Boshlang'ich sinflarda matematikadan o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda, biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi.


Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (aspekti) (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib xulosasini topgan.

Matematikadan boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'quv yo'nalishiga oid eng so'nggi usullarni shuningdek darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanish jarayoni faol pallaga kirishi bois boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish ayniqsa, muhimdir.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyat uchun eng samarali yechimni tez topa olishi uchun, bu sohada yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lishi talab etiladi. Keltirilgan masalalar darsda iloji boricha turli usullar bilan hal etilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi — taassurot qoldiruvchi



didaktik o'yinlardan ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida oqilona foydalanish samara beradi.

1-4 - sinflardagi ta'limning turi boshlang'ich ta'limni qamrab oladi, hamda o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadryatlarga asoslangan ma'naviy – axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof muhitga ongli munosabatda bo'lish va kasb tanlashni shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf matematikadan arifmetik amallarni o'rganishni maqsadli olib borish yo'llarini asoslash muhim ahamiyatga ega. Bu shakllantirilgan tushuncha va tasavvurlar ta'limning keyingi bosqichlarida, umuman, yoshlarning keyingi faoliyatida asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida rivojlanishi ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini yangilash va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning yuqori sifat ko'rsatkichini ta'minlash hamda ta'lim mazmunini Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay turib, respublika fuqarolarining yangi avlodini voyaga etkazmay turib, farovon, qudratli, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyat sari ildamlab bo'lmaydi." Shu nuqtai nazardan, farzandlarimiz, kelajak avlodlar yuqori saviyali bilimga, dunyoqarashga ega bo'lishi bilan birga bizdan, buyuk ajdodlarimizdan qolgan ilmiy, ma'naviy va madaniy merosni boyitishi hamda uzluksiz rivojlantirib borishi zarur. Muqaddas vatanimizni yana ham boy, kuchli va qudratli mamlakatga aylanishi uchun o'g'il-qizlarimizni jamiyat va oila oldidagi ma'suliyatni anglab etadigan, mustaqil fikrlay oladigan, o'z fikr mulohazalarini himoya qila oladigan qilib tarbiyalash eng dorlzarb vazifalardandir.

Jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda, kuchli intellektual salohiyatni shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi



texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish juda katta ahamiyat kasb etadi. Tayyor bilimlarni egallashga mo'ljallangan, asosan o'qituvchining faol mehnatiga asoslangan an'anaviy ta'lim endi o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zarur bilimlarni o'quvchilarning o'zlari qidirib topishi, mustaqil o'rganishi va xulosa chiqarishiga imkon beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga e'tibor tobora kuchayib bormoqda.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko'zda tutilgan asosiy vazifalardan biri mamlakatimizda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, yuqori malakali, raqobatbardosh, jahon andozalariga mos keladigan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi pedagog mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Milliy dastur asosida jamiyatning ta'lim sohasidagi potentsial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish amalga oshiriladi. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lida bevosita ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish kerak.

Bizga ma'lumki, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ikkinchi bosqichida “Ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv – tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi”, deyilgan. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish negizida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Barcha ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasi yuksaldi, zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi, faoliyat olib borayotgan ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyati ortdi va ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarning yangi shakllari tadbiq etila boshladi. To'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quv adabiyotlar va dasturlar yildan-yilga takomillashtirildi va o'quv-tarbiya jarayoni yangi, zamonaviy pedagogik



texnologiyalar bilan boyitildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uchinchi bosqich ta’kidlanganidek, “Ta’lim muassasalarining resurs kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o’quv – tarbiya jarayoni yangi o’quv- uslubiy majmualar, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan to’liq ta’minlanadi”. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o’zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o’quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, sifatli o’quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, hamkorlik va o’zaro foydali integratsiyaning yo’qligi kabi qator kamchiliklar, muammolar ko’rsatilib o’tilgan. Bu muammolar va kamchiliklarni bartaraf qilish esa har bir pedagogning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Demak, ta’lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda ta’lim sohasi xodimlari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o’rganishlari va bu bilimlarni ta’lim jarayoniga ijodkorlik bilan tatbiq etishlari muhim vazifalardan biri bo’lib qolaveradi.

**Bitiruv malakaviy ishining malakaviy ish rejalari bilan bog’liqligi:** Bitiruv malakaviy ishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ta’lim mazmunini yangilash, o’quv majmualarining yangi avlodini yaratish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish vazifalari bilan bog’liq bo’lib, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida 2007-2011 yillarga mo’ljallangan fundamental Bitiruv malakaviy ishilar dasturlari doirasidagi OT-F8-208 raqamli – “Ta’lim muassasalari o’quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg’or tajribalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari” loyihasi bilan bog’liq.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Boshlangich sinflarda o’tkaziladigan arifmetik amallarni o’rganishni taxlil qilish, boshlang’ich matematik ta’limni tashkil qilinishi va undagi arifmetik amallarning bajarishning nazariy asoslarini o’rganish.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi:** Agar, boshlang’ich ta’limni o’qitish va tashkil qilishning nazariy va didaktik asoslari ishlab chiqilsa, boshlang’ich ta’limning tashkil qilinishi bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa, boshlang’ich matematik ta’limni tashkil qilinishi va undagi arifmetik amallarning bajarishning nazariy asoslari ishlab chiqilsa, minglar konsentrida qo’shish amalining o’rganish metodikasi ishlab chiqilsa, minglar konsentrida ayirish amalining o’rganish metodikasi ishlab chiqilsa ,




minglar konsentrida ko`paytirish amalining o`rganish metodikasi ishlab chiq  
minglar konsentrida bo`lish amalining o`rganish metodikasi ishlab chiqilsa, u holda  
o`quvchilarning matematik bilim, ko`nikma va malakalarini rivojlantirish  
samaradorligi oshadi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

- Boshlang`ich ta`limni o`qitish va tashkil qilishning nazariy va didaktik asoslarini o`rni va ahamiyatini aniqlash;
- boshlang`ich ta`limning tashkil qilinishi;
- boshlang`ich matematik ta`limni tashkil qilinishi va undagi arifmetik amallarning bajarishning nazariy asoslarini taxlil qilish;
- boshlang`ich sinf o`quvchilarining matematik bilim, ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo`ladigan 3-sinf matematik ta`limida arifmetik amallarni o`rganishga oid dars ishlanmalarini tuzish;

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari:**

O`zbekiston Respublikasining “ Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Prezidentimizning “2004-2009 yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to`g`risida”gi Farmoni, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma`ruzalaridagi ta`limni isloh qilish to`g`risidagi yondashuvlar, qarashlar va ta`lim jarayonini takomillashtirishga yo`naltirilgan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta`limi Vazirligining ta`lim samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlari va h.k.



## **I. BOB. Boshlang'ich ta'limni o'qitish va tashkil qilishning nazariy va didaktika asoslari.**


### **1.1 Boshlang'ich ta'limning tashkil qilinishi.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiy xamda ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini xam tubdan yangilash imkonini berdi.

"Ta'lim to'g'risidagi qonun" ning "Davlat ta'lim standarti " to'g'risidagi yettinchi moddasida belgilab berilganidek, davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar xamda oliy ta'lim mazmuniga sifatiga, qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini talablari va meyoriy ko'rsatkichlari belgilab qo'yiladi.

"Ta'lim to'g'risidagi qonun"da ta'kidlanganidek: "Maktabning 1-sinfiga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi. "Boshlang'ich ta'lim konseptsiya" sida e'tirof etilganidek 6 yoshga to'lgan xar qanday bola aqliy, ruxiy va jismoniy jixatdan maktabga o'qish uchun tayyor bo'lganda maktabning moddiy texnik ba'zasi bunday bolalarga ta'lim berish uchun yetarli deb xisoblaganda xamda o'quvchilar pedagogik xamda psixologik jixatdan olti yoshli bolalarni o'qishga tayyor bo'lganda ularni maktabga qabul qilish mumkin. Buning uchun 6-7 yoshli bolalar, maktabning moddiy texnik ba'zasi xamda o'qituvchilar pedagogik va psixologik talablar asosida qat'iy diagnostika qilinishi shart".

O'zbekiston Respublikasida "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom"da ta'kidlanganidek; "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari o'zini-o'zi nazorat qilish o'quvi, nutq va xulk-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush asoslari egallab olishini ta'minlashi davlat etilgan". SHu asosga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish saloxiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyo qarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash saloxiyatini shakllantirishda, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borlik go'zalliklarini xis eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavq-



lana olishga, milliy urf-odatlarini xis eta oldishga va ardoqlashga, ularga 1 qilishga o`rgatadi.

Tarbiyaviy maqsad: o`quvchilarga g`oyaviy-siyosiy tarbiya berish, ularda aqliy mehnat, malaka va ko`nikmalarni xosil qilish, shuningdek o`quvchilarning bilishga bo`lgan faoliyatini oshirish quyidagilarni o`z ichiga oladi:

-o`quvchilarni vatanparvarlik va poklik ruxida tarbiyalash;

-xar tomonlama rivojlangan, ma`naviy jixatdan boy mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish;

-rostgo`ylik, o`zga xaqqa, uning qadriyatlariga xurmat bilan qarashlik, iymon, e`tiqod, do`stlik, o`z qadrini bilish va irodalilik kabi sifatlarni shakllantirish.

Tarbiyaviy (vatanparvarlik, mexnatsevarlik, axloqiy poklik kabi) maqsad amalga oshiriladi. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirilishiga mo`ljallangan matnlar esa darslik, qo`llanma va boshqa adabiyotlarda o`z ifodasini topadi.

Ta`limiy maqsad: ta`limiy maqsad deganda-dars jarayonida o`quvchilarni tafakkurini o`stirish va fanlarni o`zlashtirishni egallagan bilimlarini rivojlantirish tushuniladi.

Rivojlantiruvchi maqsad o`quvchi shaxsning aqliy, xissiy va motivatsion (ichki turtki) xususiyatlarini rivojlantirishni ifodalydi. Rivojlantiruvchi maqsad nutqiy xarakterli tufayli yuzaga chiqadi. Rivojlantiruvchi maqsad o`quvchilarni dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil bo`lib o`qib o`rganishga yo`naltiriladi.


o`quvchilarni tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan majburiy minimal talablar.

umumiy o`rta ta`lim ikki bosqichdan iborat bo`lib, boshlang`ich(1-4 sinflar)va umumiy o`rta ta`lim (1-9 sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti boshlang`ich xamda umumiy o`rta ta`lim nixoyasida o`quvchilar egallashi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarni minimal darajasini belgilab beradi.

Boshlang`ich sinflarda dars tuzishni o`ziga xosligi.

1-4 sinflar ona tili va o`qish.



Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish bo'yicha quyidagi bilim ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

A) O'qish texnikasi bo'yicha:

miqdoriy ko'rsatgich: bir dakikada 80-90 so'zni o'qiy olish.

Talablar:

- xarflarni to'g'ri talaffuz qilish;
- so'zlarni to'g'ri o'qish;
- gap oxangigi rioya qilgan xolda ravon va obrazli o'qish;
- gapdagi tinish belgilarni talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratish oxanglaridan to'g'ri foydalanish;
- so'z urg'ulariga rioya qilish;
- oxangga rioya qilish;
- ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish;

B) Matn mazmuni va o'zgalar fikrini anglash malakasi bo'yicha; Miqdoriy ko'rsatgich: 10 daqiqada 4-5 saxifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish.

Talablar:

- og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, anik, tushunarli ta'sirchan bo'lishi; -monologik nutqning ravon bo'lishi;
- dialogik nutqda ta'sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo'lishi;

V) Diktant yozish malakasi:


Miqdoriy ko'rsatgich: 75-80 so'zdan iborat diktant yoza olishi. Talablar:

- imlo xatolarga yo'l qo'ymaslik;
- ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi;
- berilgan izohlarning aniqligi;
- lug'atlarni to'g'ri va aniq berilishi;

O'zbek tili.

Ta'lim tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 1-4 sinflarda davlat tili ta'limidan o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- o'zbek tilidagi 700 ta so'zni nutqlarida qo'llay olish;
- mamlakatimiz mustaqilligi ramzlari va bayramlari xaqida so'zlab berish;



- yozma va og`zaki nutqlarga ega bo`lish;
- fikr bayon qilish uchun zarur bo`lgan ayrim grammatik vositalarni o`z o`rnida qo`llay olish;
- bog`lanishli nutq elementlaridan to`g`ri foydalangan xolda sodda matn tuza olish;
- xalq og`zaki ijodi xamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni o`qib tushuna olish;

#### Matematika.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilar matematikadan quyidagi bilim, ko`nikma va malakalarni egallashlari shart:


- sonlarni o`qish va yozish, ularning xona qo`shiluvchilarini yig`indisi ko`rinishidagi sonlarni tushunish;
- natural sonlarni to`g`ri taqqoslash "katta", "kichik" va "teng" belgilarini to`g`ri qo`llash.
- sonlarni yozma qo`shish, uch xonali va to`rt xonali sonlarni ayirish, bir xonali va ikki xonali songa ko`paytirish va bo`lish;
- qo`shish, ko`paytirish, ayirish va bo`lishning xollarda yuz ichida og`zaki xisoblarni bajara olish;
- "yig`indi", "ayirma", "ko`paytma" va "bo`linma" atamalarini ma`nosini tushunish va sonli ifodalarni o`qishda qo`llay olish;

#### Jismoniy kamolotga oid:

- inson salomatligini va jismoniy kamolotiga oid tushunchalarni bilish;
- chiniqish moxiyatini anglash;
- gimnastika mashqlarini bajara olish;
- shaxsiy gigiena meyorlariga amal qilish;
- jismoniy mashqlarni inson kamolotini ta`minlashdagi ahamiyatini anglash;
- jismoniy tarbiya mashqlarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan xolda bajara olish;
- milliy o`yinlar qoidalarini bilish;
- turli sport o`yinlarini elementlarini qo`llay olish;

#### Musiqaga oid:

- musiq badiiy san`at ekanligini bilishlari;




- xalq musiqa merosi xaqida tushunchaga ega bo`lish;
- cholg`u asboblari bilish va tovush tembrlaridan ularni farqlay olish;
- musiqaga oid oddiy atamalarni bilish;
- nota yozuvlarini bilish va amalda qo`llay olish;
- birgalikda va yakka xolda kuylay olish;
- musiqaning ifoda vositalarini bilish;
- ijrochilar turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

Tasviriy san`atga oid:

- tasviriy san`at va unga oid iboralarni bilish;
- asosiy ranglarni farqlay olish;
- badiiy materiallar, asboblari va jixozlarni farqlay olish;
- rasm ishlash bosqichlarini bilish;
- naqshlar va ularning xususiyatini bilish;
- bo`yoqni o`z o`rnida ishlata olish;
- tabiat manzaralarini kuzatish va tasvirlay olish;
- buyumlar yasash va ularni bezata olish;
- turli ranglarni xosil qila olish;
- badiiy tasvirlarning jamiyat xayotida tutgan o`rnini bilish;

Insonning moddiy va ma`naviy ehtiyojiga oid:

- Vatan tushunchasiga ega bo`lish;
- davlat tushunchasi, davlatning ramziy belgilarini, ona Vatan tuyg`usini anglash;
- O`zbekiston axolisi va milliy tarkibini bilish;
- mamlakat xayotidagi buyuk sanalarni va bayramlarni bilish;
- axloq va kiyinish meyorlarini bilish;
- mehmonga, atrofdagilarga mulozamat ko`rsatish;
- dasturxon tuzatishni bilish;
- orastalik meyorlarini bilish;
- o`z tug`ilgan joyi va o`lkasi xaqida tushunchaga ega bo`lish;
- texnik modellashtirishga oid ishlarni bajara olish;
- uy ro`zg`or ishlarini bajara olish;



- sodda konstruktorlik ishlarini bajara olish;
- duradgorlikka oid sodda va yengil ishlarni bajara olish;
- oddiy bichimli tiqish ishlarini bajara olish;
- inson mehnatini faoliyat turlarini anglash;
- xuquq va xuquqbuzarlik tasavvuriga ega bo`lish;
- qishloq va shahar aholisi xayotini bilish;
- uy xo`jaligi xaqida ma'lumotga ega bo`lish;
- oila va uning qanday tashkil topishini bilish;
- insonning pulga bo`lgan extiyojini anglash;
- pul birliklarini bilish;
- narx va uning o`zgaruvchanligini bilish;


## **1.2 Boshlang'ich matematik ta'limni tashkil qilinishi va undagi arifmetik amallarning bajarishning nazariy asoslari.**

Boshlang'ich sinflarda matematika o`qitish maktabda dars shaklida va dasrdan tashqari mashg'ulotlar, uyda mustaqil uy ishi shaklida, tabiatda ekskursiya shaklida amalga oshiriladi.

Matematikadan o`quv ishlarini tashkil qilishning asosiy formasi dars hisoblanadi. Matematika darsining o`ziga xos tomonlari eng avval, bu o`quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Ma'lumki matematika boshlang'ich kursi shunday tuzilganki, unda arifmetika materialini o`rganish bilan bir vaqtda algebra va geometriya elementlari xam kiritiladi. SHuning uchun har bir darsda arifmetika materialidan tashqari geometriya va algebra materiallari ham qaraladi.

Matematika kursining turli bo`limlaridan materiallarining qo`shilishi matematika darsining ko`rilishiga va uni o`tkazish metodikasiga ta'sir qiladi. Matematika boshlang'ich kursining boshqa o`ziga xos tomoni nazariy va amaliy masalalarni birgalikda qaralishidir. SHu sababli har bir matematika darsida bilimlarni o`zlashtirish ishi o`quv va malakalar ishlab chiqish bilan bir vaqtda olib boriladi.



Darsda biror materialga nisbatan oldindan tayyorgarlik ikkinchi materialga nisbatan tanishtirish, uchunchi material ilgari o'rganilgan materialga nisbatan bilimlarni umumlashtirish, sistemalashtirish, puxta o'quv va malakalar xosil qilish maqsadida mustahkamlash ishi olib boriladi.

Bu bilan bir paytda o'quvchilarni bilimlari, o'quvchilarni malakalarini nazorat qilish va hisobga olish amalga oshiriladi. Matematika darslarining xususiyatlari o'quvchilarning matematik materialni o'zlashtirish xususiyatiga bog'lik. Materialning abstrakt xarakterda bo'lishi ko'rsatma vositalarni o'qitishning aktiv metodlarni to'g'ri tanlashni dars davomida o'quvchi faoliyatning turli tuman bo'lishini o'quvchilarga individual va differentsial yaqinlashishini talab qiladi va matematika darslarda ta'lim xarakteridagi vazifalar bilan bir qatorda tarbiyaviy vazifalar ham qaraladi.

O'quv ishlarining tarbiyaviy xarakterda bo'lishiga erishishda o'qituvchi yetakchi rol o'ynaydi, chunki darsning mazmunini, metodini, uni tashkil etishini o'qituvchini o'zi belgilaydi. Matematika darsida o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni tevarak atrofdagi hayotga sinchkovlik bilan qarash xislatlarini, ishda tashabbuskorlikni sof vijdonlikni shakllantirish xisoblashlarda o'lchamlarda, yozuvlarda aniqlik va batartiblikni ishlab chiqish, qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalash kabi vazifalar hal qilinadi.

Darslarda bolalarda matematikaga qiziqish tug'dirish va ularda mustaqil ishlash o'quvchilarini tarbiyalashga e'tibor beriladi. Dars bolalar uchun qiziqarli bo'lsa, u holda ularda o'quv ishlarida katta aktivlik va mustaqillik paydo bo'ladi, matematikaga qiziqish uyg'otish maqsadida darslarga didaktik o'yinlar, qiziqarli mashqlar kiritiladi. O'qituvchi darsni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rinishida eng oldin darsning asosiy maqsadlarini aniqlab olishi zarur. Darsni maqsad va vazifalarini belgilab olinganidan keyin o'qituvchi darsda qilinadigan ishlar mazmunini aniqlab olishi kerak.

Dars mazmunini aniqlash uchun o'qituvchi hozirgi zamon darsi mazmuniga qo'yiladigan talablarga rioya qilish kerak:

1. Darsning mazmuni dasturga muvofiq bo'lishi kerak;



2. Har bir dars aniq mazmunini va maqsadni ko`zda tutib tuzilgan bo`lozim;

3. O`quv materialni mazmuni o`tilayotgan mavzuga, darsning maqsadiga mos kelishi o`quvchiga tushunarli bo`lishi hayot va mehnat bilan bog`lik bo`lishi kerak;

Darsda arifmetika, algebra, geometriya materiallarining nazariyasi, amaliy faoliyati, xisoblash mashqlari, masalalar yechish bir-biri bilan bog`lik bo`lishi kerak.

4. Matematika darsida ish uslubiyoti o`quvchining yosh xususiyatlariga javob bera olishi, ularning bilish faoliyatini tuzatish va rivojlantirish, aqliy va amaliy analiz, sintez qilishi, umumlashtirish faoliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo`lishi kerak;

5. Matematika darsining har bir bosqichida o`quvchilar tomonidan darslarni, bilimlarni qanday o`zlashtirilayotgani tekshirib borilishi lozim;

6. Dars zarur bo`lgan barcha o`quv qurollari, darslik, daftar, ko`rgazmali qurol didaktik materiallar, o`lchov va chizmachilik asboblari bilan ta`minlanishi kerak;

7. Har bir matematika darsi tashkiliy aniqligi bilan ajralib turishi, ya`ni darsning har bir qismi aniq maqsadga ega bo`lishi va darsning asosiy maqsadiga bo`ysinishi, darsni puxta rejalashtirish va har qismlari orasida vaqtni to`g`ri taqsimlash kerak;


Frontal ish yakka tartibda va tabakalashtirish yondashish bilan qo`shib olib boriladi.

8. Matematika darslarida o`tilganlarni takrorlash har bir darsda olib borilish kerak, ya`ni uzluqsiz takrorlash printsipiga amal qilish kerak;

9. Har bir darsda o`qituvchi o`quvchining nutqini o`stirish so`z lug`atini yangi matematik atamalar, iboralar bilan boyitish, bola nutqini aniqlash, grammatik to`g`ri tuzulishini kuzatish kerak;

10. O`quv materiali o`quvchilarga tushunarli va ularning kuchlari etadigan bo`lishi kerak;

11. Darsda ish faoliyatining bir turi ikkinchi turi bilan almashinib turilishi o`quvchilarning ishlash qobiliyatlari va tez charchashlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak;



12. Darsni turmush bilan o`quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog`liq kerak. Matematik darslarida bajariladigan asosiy ish turlari: Og`zaki mashqlar, yozma xisoblashlar va masalalar yechish, yasashga va o`lchamga doir mashqlardan iborat.

Hozirgi zamon darsida qilinadigan muhim talablardan biri o`quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini aktivlashtirishni talab qilishdan iborat. Har bir dars o`ziga yarasha fikrlash darsi ijod qilishga qatnashtirish darsi bo`lishi kerak.

Darsda qilinadigan asosiy talablarga amal qilgan xolda o`qituvchi bu talablarni amalga oshirishga nisbatan xam o`z sa`nati o`z metodik uslubi bilan ta`sir qiladi, bu san`at metodik uslub sinfning xarakteriga va uning individual xususiyatlariga bog`lik.


O`qituvchi darsga tayyorlanganda bir qator masalalarni reja asosida, reja bilan bajarishi kerak. Rejada quyidagi elementlar o`z aksini topishi kerak:

1. Darslik o`tkazilish vaqti va uning matematik reja bo`yicha raqami;
2. Dars mavzusining nomi;
3. Darsning asosiy didaktik maqsadlari, ta`limiy, tarbiyaviy vazifalari;
4. Darsda foydalaniladigan jixozlar;
5. Yangi materialni o`rnanishga oid, mustahkamlash va takrorlashga oid va navbatdagi mavzuni o`rganishga oid ishlarning mazmuni;
6. Darsning har bir qismida bajariladigan o`quv ishning metod va usullari;
7. Darsning borishida so`ralishi kerak bo`lgan o`quvchilar familiyasi;
8. Uy vazifalari.

Rejaning mukamallik darajasi ko`p omillarga masalan, o`qituvchining tajribasiga darsning qiyinlik darajasiga, darsda qaralishi kerak bo`lgan mashqlarni murakkabligiga bog`lik.

O`qituvchi shu reja asosida dars tashkil etadi, endi boshlang`ich sinflarda matematika darslarning asosiy turlarini ko`rib chiqaylik. Didaktik maqsadlarga qarab matematika darslarning ushbu turlari bir-biridan farq qiladi.

1. Yangi materialni o`rganish darsi;
2. Murakkab dars;
3. Bilimlar, malakalar va ko`nikmalarni mustahkamlash darslari;
4. O`tilganlarni takrorlash darslari;



## 5. Bilimlarni tekshirish va baxolash darslari (yozma ish darsi);


Har bir matematika darsi o'z tarkibiy tuzilishiga ega. Dars ushbu asosiy qismlardan iborat bulishi mumkin: tashkiliy qism, uy vazifasini tekshirish, dars mavzusi va maqsadni bildirish, materialni takrorlash yo'li bilan o'quvchilarni yangi materialni qabul qilishga tayyorlash, og'zaki hisoblanadigan maxsus mashqlar, yangi materialni o'rganish, bilim va o'quvchilarni dastlabki mustaxkamlash, olingan bilimlarni mashqlar bajarishda qo'llash, o'quvchilarning mustaqil ishi va uni tekshirish, ilgari o'tilgan materialni takrorlash, yuga vazifa berish, darsni yakunlash va darsni tugatish. Darsning turiga qarab bu tarkibiy qismlar turlicha bo'lishi va turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Aralash, murakkab dars strukturasi quyidagicha:

1. Tashkiliy qism;
2. Uy vazifani tekshirish;
3. O'tilgan mavzuni takrorlash;
4. Yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik;
5. Yangi mavzu bayoni;
6. Yangi mavzuni mustaxkamlash;
7. Ilgari o'tilganlarni takrorlash va mustaxkamlash;
8. Uyga vazifa berish;
9. Darsni yakunlash.

Yangi materialni o'rganish darslari:

1. Tashkiliy qism;
2. Uy vazifasini tekshirish;
3. O'tilgan materialni takrorlash: a) og'zaki xisob mashqi; b) mustaqil ish;
4. Yangi materialni o'rganishga tayyorlash;
5. Yangi mavzuni bayon etish;
6. Yangi mavzuni dastlabki mustahkamlash;
7. Uy vazifa berish va o'quvchilar bilimini baxolash;
8. Darsni yakunlash, tugatish.



Bu darslardan tashqari ularning asosiy qismlari olingan bilimlar mustahkamlashga yo`naltirilgan bo`ladi. Bunday darslar bilimlar, ko`nikmalar va malakalarini mustahkamlash darslari deyiladi.

Mashqlar, amaliy va mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu darsning strukturasi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Tashkiliy qism;
2. Uy vazifasini tekshirish;
3. Dars maqsadini qo`yish;
4. O`tilgan mavzuni takrorlash: a) mustaqil ish yo matematik diktant; b) o`tilgan mavzu yuzasidan beriladigan savollar; v) o`tilgan mavzu yuzasidan bajariladigan mashqlar;
5. Uy vazifasi berish, o`quvchilar bilimini baholash ya'ni darsni yakunlash;
6. Darsni tugallash.


O`tilganlarni takrorlash darslari. Takrorlash darsining strukturasi mustahkamlash darsining strukturasi kabi bo`ladi. Takrorlash bilan mustahkamlash ko`p jixatdan o`xshash, ammo darslarni tashkil qilishda ularning farqi bor. Odatda ba'zi qoida va qonunlar bevosita yangi materialni o`tib bo`linishi bilan mustahkamlanadi. Mustahkamlash vaqtida dastlabki malakalar va ko`nikmalar shakllanadi. Takrorlash darsida esa asosan o`quv materialni sistemaga solinadi va umumlashtiriladi. Takrorlash darslarini turlarini bir-biridan ajratish mumkin:

1. O`quv yili boshida va kundalik takrorlash darslari: taxminan ikki hafta davomida birinchi sinfdan tashqari xamma sinflarda takrorlash darslari o`tkaziladi. Takrorlash darslarning maqsadi o`tgan o`quv yilida olingan bilimlar, ko`nikmalarni xotirada tiklashda iborat.

2. Tematik takrorlash darslari. Ma'lumki, matematika dasturi bo`limlarga, temalarga bo`lingan. Tema bo`yicha materialni takrorlash bilan o`quvchilar asosiy nazariy qoidalarni ajratadilar, mashqlar sistemasini yechadilar.

3. Umumlashtiruvchi takrorlash darslari chorak bo`yicha takrorlash, yarim yil bo`yicha takrorlash, bir yil bo`yicha takrorlash.

Bilimlar, ko`nikma va malakalarni tekshirish va xisobga olish darslari.



O`quvchilarning bilimlarni sistematik tekshirish har bir darsda bajariladi. Bundan tashqari bilimlarni tekshirishga alohida darslar ajratiladi. Bunday darslarning strukturasi quyidagicha:

1. Tashkiliy qism;
2. Dars maqsadini aytish;
3. Yozma ishning mazmuni bilan tanishtirish;
4. Ishni bajarilga oid qisqacha yo`l-yo`riq berish;
5. O`quvchilarning ishlarini mustaqil bajarishlarini ta`minlash;
6. Ishni yig`ib olish.

#### Darsni tahlil qilish

Dars o`tkazish metodikasini egallab olishda tajribali o`qituvchilar darslariga qatnashish va shu darslarni taxlil qilish, shuningdek, o`zining darslarini taxlil qilish katta ta`sir ko`rsatadi. Matematika darsining taxlili ushbu yo`nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Berilgan tema bo`yicha darslar sistemasida darsning o`rni va rolini aniqlash, bu dars mazmunini, uning strukturasi, ishlash metodlari va usullarini to`g`ri baholashga yordam beradi.

2. Darsning asosiy didaktik maqsadlarini, ta`limiy va tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash va asoslash.


3. Darsning xar bir qismi mazmunining va uni o`tkazish metodikasining analizi, dars materiali ta`lim tarbiyaviy maqsadlarga mos kelishik, dasturga mos kelishi o`quvchilarning yosh xususiyati, rivojlanishi va matematik bilimlarini o`zlashtirish darajalariga mos bog`liqligi, o`quvchilarning mustaqilliklari va aqliy faoliyatlarini aktivlashtirish.

4. O`quvchilar faoliyatlarini tashkil qilishni baholash, o`quvchilarga individual va kollektiv ishlarini birgalikda olib borish, o`quvchilarga differentsial yaqinlashish.

5. O`qitishning har xil vositalari dasrlik didaktik materiallarining rolini aniqlash.

6. O`qituvchi qiyofasi.

7. Darsning umumiy bahosi.



## O`quvchilarning uy ishi

Uy ishlari bu o`quvchilarning dasrdan tashqari vaqtlarda mustaqil, individual ishlarini tashkil qilish formalaridan bittasi. Uy ishining bajarilishida u yo bu material takrorlanibgina qolmay, balki muxim malaka va ko`nikmalar shakllanadi, bu esa o`quvchilar mustaqil faoliyatining eng muxim qismidir.

To`g`ri tashkil qilingan va mustaqil bajariladigan uy ishlarining borishida va natijasida shaxsning xavfsalaligi, mexnatsevarligi, intizomligi, bartarabligi, topshirilgan ish uchun ma`suliyatini xis etishi shakllanadi va rivojlanandi, o`z faoliyatini rejalashtirish malakasi, o`z-o`zini nazorat qilishi ko`nikmalari mukammalashadi. U ishlarini tashkil qilish ushbu talablarga javob bermog`i kerak:

1. Uyga beriladigan vazifalar o`quvchilarning kuchlari va bilimlariga mos kelishi kerak. SHu sababli birinchi sinf o`quvchilarida mustaqil ish ko`nikmalarini xosil qilish ma`lum vaqt talab qilishini xisobga olib o`quv yilining birinchi yarim davomida uyga vazifa berilmaydi, ikkinchi yarim yildan boshlab uyga beriladigan vazifalar sinfda bajarilganlaridan soddaroq va o`quvchilar uddalay oladigan bo`lishi kerak.

2. Uyga vazifalarni sistemali ravishda berish kerak. Xaftaning oxirgi kunlari va bayram oldi kunlari bundan mustasnodir.

3. Uyga vazifalarning xajmi xamma predmetlar buyicha ularni bajarishga ajratilgan ma`lum vaqt normasidan oshmasligi kerak.

4. Kichik yoshdagi maktab o`quvchilariga uy vazifasini qanday bajarishga doir ko`rsatmalar berish zarur.

5. Xar qanday uy ishi o`qituvchi tomonidan tekshirilgan bulishi kerak.

Uy vazifasini tekshirish darsning muxim qismi, tekshirish sistemasi yaxshi yo`lga qo`yilsa, uy vazifasini bajarmasilik yo ko`nikarsiz bajarish xaqidagi fikr o`quvchi xayoliga xam kelmasili kerak. O`quvchilarning uy ishlarini tekshirish o`qituvchining vazifasigina bo`lib qolmay, balki zarur narsadir ham. Bu ishni bajarmay turib, o`quvchilarning o`tilgan materialini qanday o`zlashtirishlari haqida yaqqol tasavvurga ega bo`lib bo`lmaydi.



Uy vazifalarini sistemali tekshirib borilmasa, ular o'z ma'nosini yo'qotadi. O'quvchi uy vazifasini doimiy tekshirib borishi bilan o'zining o'quvchining o'quv faoliyatiga qiziqqanligini namoyon qiladi, topshiriqlarning bajarilishi muhimligini ko'rsatadi, o'quvchilarning qilgan mehnatlariga nisbatan xurmatini ko'rsatadi, shu yo'l bilan u o'quvchilarida uy vazifasiga nisbatan to'g'ri munosabatini tarbiyalaydi.



Topshiriqlarning xarakteriga qarab uy vazifasini tekshirish formasi turli-tuman bo'lishi mumkin agar uy ishi oldingi dars materiali va o'tilayotgan dars vazifalari bilan tarkiban bog'lanmagan bo'lsa, u xolda darsning boshidagina emas, balki istalgan bosqichida tezgina qarab chiqish bilan cheklanish, ishining to'g'ri bajarilganligini esa uyda qarash mumkin.

Agar uy ishi o'tilayotgan dars mazmuniga bog'lik bo'lsa yoki u oldingi darsda o'rgatilgan yangi material bo'yicha berilgan bo'lsa, u xolda javoblarning to'g'riligini tekshirishning o'zgina emas, balki bajarilgan amallarni o'quvchilarning tushuntirishlarini tinglash xam muximdir. Agar o'quvchi uy ishini xatto bo'sh o'quvchilar xam uddasidan chiqqanligicha ishonch xosil qilsa, u xolda uy vazifalarini umuman tekshirmaslik xam mumkin.

Uy vazifasini tekshirish formulalarida yana biri tanlab tekshirishdir. Bu o'rinda berilgan uy vazifasini eng asosiy qiyin joylarni tanlab tekshirish nazarda tutiladi. Uy vazifasini tekshirishning boshqa formalari xam mavjud. Masalan: oldindan doskaga osib qo'yilgan asboblardan taqqoslash berilgan topshiriqdagina o'xshash topshiriqlarning bajarilganligini o'zaro tekshirish va og'zaki xisob bilan bog'lab berilgan uy vazifalarini tekshirish boshlang'ich sinflarda keng tarqaldi.

6. Uy vazifasini tashqil qilishga nisbatan muxim talab uning ko'rinishi va mazmuni turli-tuman bulishidir.

Uy vazifasi faqat misollar va masalalar yechishgina emas, balki topshiriqlarning boshqacha turlarini xam o'z ichiga olishi kerak. Bu turlar ushbulardan iborat ifodalarni taqqoslash tenglamalar yechish geometrik xarakterdagi topshiriqlar va uy vazifasiga ijodiy xarakter berish va o'quvchilarda unga qiziqishi uyg'otish uchun uyga beriladigan topshiriqlarning mazmuniga jumbok xarakterdagi



topshiriqlarni, masalalarni har xil usullar bilan yechishni, masalalar tuzish va ularni almashtirishlarini kiritish kerak.


O`quvchilarning uy ishlariga dasrda bajarilgan ishning tabiiy davomi bo`ladi va unda olingan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

7. Hamma o`quvchi o`z imkoniyatiga qarab xar doim topshiriq olishi uchun uy ishlarini individuallashtirishni amalga oshirish maqsadga muvofik. Topshiriqning xajmi, maqsadi, bajarilishi usulini individuallashtirish mumkin.

8. O`quvchilar uy vazifalarini muvoffakiyatli bajarishlarining muxim sharti ota-onalarga o`quvchilarga o`z kuchlari yetganiga va maqsadiga muvofiq yordam berishlari xaqidagi konsultatsiyalardir.

Uyga berilgan topshiriqlar darsdan mustaqil vaqtlari o`quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil qilish formasi shaklida zarurdir. Bunda uy vazifalarning o`quvchilar kuchlariga mos kelishi lozimligi talabi ayniksa muximdir. Uy vazifalarni o`quvchi dars oxirida yo boshqa qismida berishi mumkin, vazifani o`qituvchi qiska shaklida doskaga yozadi, o`quvchilar kundaliklariga yozib oladilar.


Boshlangich sinf o`quvchilarida og`zaki yozma xisoblash ko`nikmalarini tarkib toptirish matematika dasturini yo`nalishlaridan biri. Arifmetik amallarni o`rganishda oldin bolalar ongiga uning ma`nosini mazmunini yetkazish kerak. Bu ish predmetlarini har xil to`plamlari bilan amaliy ishlar bajarish asosida utkaziladi. O`quvchilarning qo`shish va ayirish amallarini ma`nosi bilan tanishtirish ikki to`plam elementlarini birlashtirishga oid berilgan to`plamdan uning qismlarini ajratish kabi amaliy operatsiyalar asosida olib boriladi. Ko`paytirish amalini o`rganishda bir nechta teng sonli to`plamlarni amalda birlashtirish bilan cheklanadi. Ko`paytirish uning komponentalari bilan natijasi orasidagi bog`lanishlarni o`rganish uz navbatida bo`lish amalini o`rganish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Har xil (ogzaki va yozma ) xisoblash usullarining ongli o`zlashtirilishi uchun dastur arifmetik amallarning ba`zi muxim xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Masalan I sinfda 10 ichida qo`shish va ayirishni o`rganishda bolalar qo`shishning o`rin almashtirish xossasi bilan tanishadilar. 100 ichida qo`shish va ayirishni o`rganishda soni yigindiga qo`shish va yigindini songa qo`shish, ayirmaning



asosiy xossasidan chiqadigan natijalar bo'lmish yig'indidan sonni ayirish yigindini sondan ayirish bilan tanishadilar. O'rganilgan xossa va qoidalar xisoblashlarni soddalashtirish imkonini beradi. Masalan: qo'shiluvchilar o'rinlarini almashtirish usuli,  $3+6$ ,  $2+8$  ni xisoblashlarini yengillashtiradi. Dastur arifmetik amallarni xossalarini o'rganishdan tashqari bolalarni arifmetik amallar orasidagi mavjud bog'lanishlar va amal xadlari va uning natijalari orasidagi munosabatlar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu bilimlarning xammasidan xisoblashlarda va amallar to'g'ri bajarilganini tekshirishda foydalaniladi. Masalan: ko'paytirish amalini komponentalari bilan natijasi orasidagi bog'lanishlarni bilganlikka tayanib, xar bir ko'paytirish xoli asosida bo'lishning tegishli xollarining xosil qiladilar: agar  $6 \cdot 4 = 24$  bo'lsa, u xolda  $24:6=4$ ,  $24:4=6$ . Arifmetik amallarni o'rganishdagi navbatdagi masalalar og'zaki va yozma xisoblash usullaridan ongli foydalanish asosida o'quvchilarda xisoblash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'likdir. Og'zaki xisoblashning asosiy ko'nikmalari I va II sinflarda shakllanadi. II, III sinfda yozma xisoblashlar ustida ish boshlanadi. SHu bilan birga yozma xisoblashlarda og'zaki xisoblash ko'nikmalari takomillasha boradi, chunki og'zaki xisoblashlar yozma xisoblash jarayoniga tarkibiy element sifatida kiradi. Og'zaki xisoblash ko'nikmalariga ega bo'lish yozma xisoblashlarni ko'prok, muvoffakiyatli bajarishni ta'minlaydi. Og'zaki xisoblash usullari xam yozma xisoblash usullari xam amallar xossalari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar kompanentalari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlarni bilganlikka asoslanadi. Ammo og'zaki va yozma xisoblash usullarining farq qiluvchi xossalari ham bor.

Og'zaki xisoblashlar:

1. Xisoblashlar yozuvlarsiz (ya'ni miyada bajariladi) yozuvlar bilan tushuntirib berishi mumkin. Bunda yechimlarni:
  - a) Tushuntirishlarni to'la yozish bilan (ya'ni xisoblash usulini dastlabki mustaxkamlash bosqichida ) berish mumkin.  $9+5=9+(1+4)=(9+1)+4=10+4=14$   
 $43+5=(40+3)+5=40+(3+5)=40+8=48$ .
  - b) Berilganlarni va natijalarni yozish mumkin:  $43+5=48$ .  $9+5=14$ .
  - v) Xisoblash natijalarini nomerlab yozish mumkin. 1). 14, 2) 48.



2. Xisoblashlar yuqori xona birliklaridan boshlab bajariladi.

Masalan:  $470-320=(400+70)-(300+20)=(400-300)+(70-20)=100+50=150$ .

3. Oralik natijalar xotirada saklanadi.

4. Xisoblashlar xar xil usullar bilan bajarilishi mumkin.

Masalan:  $26*12=26*(10+2)=26*10+26*2=260+56=312$ .

$26*12=(20+6)*12=20*12+6*12=240+72=312$ .

$26*12=26*(3*4)=(26*3)*4=78*4=312$ .


5. Amallar 10 va 100, 1000 ichida va ayrim ko'p xonali sonlar ustida xisoblashlarning ogzaki usullaridan foydalanib bajariladi.  $50020:5=1004$ .  
 $54024:6=9004$ .  $630045:9=7005$ .

Ba'zi misollarni og'zaki ham yozma yechish mumkin. Bu xollarda o'quvchilar yechimlarni taqqoslab, arifmetik amallarning mazmunini va sonlar ustida bajarilayotgan amallar mazmunini yaxshi tushunib oldadilar. O'qitish protsessida har xil usullar vositalaridan foydalanib, ko'p sonda mashq qildirish xarakteridagi mashqlarni bajarish bilan arifmetik amallarni jadval xollarini yetarlicha puxta uzlashtirmaslik yozma xisoblash usullarini uzlashtirishda .

O'nlik mavzusida sonlari qo'shish va ayirishiga o'rgatish metodikasi.

Bu mavzu ustida ishlashda o'qituvchi oldida turgan asosiy maqsadda quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni qo'shish va ayirish amalarining mazmuni bilan tanishtirish,
  2. Xisoblash usullaridan o'qituvchilarning ongli foydalanishlarini ta'minlash.
    - a) Sonni qismlari bo'yicha qo'shish va ayirish usuli.
    - b) Ikkita sonni yig'indining almashtirish xossasidan foydalanib qo'shish usuli.
    - v) Sonlarni ayirishda qo'shishning tegishli xolini bilishdan yo yig'indi va qo'shiluvchilardan biri bo'yicha ikkinchi qo'shiluvchini topish malakasidan foydalaniladigan xolda yig'indi bilan qo'shiluvchilar orasidagi bog'lanishlarni bilganlikka asoslangan ayirish usuli.
  3. O'n ichida qo'shish va ayirishni o'rganish ko'nikmalarini avtomatizmga yetkazish.
- O'n ichida qo'shish va ayirishni o'rganish ishini o'zaro bog'langan bir necha bosqichga bo'lish mumkin.



I-bosqich: Tayyorgarlik bosqichi:

Qo`shish va ayirish amallarining aniq mazmunini ochish:  $a \pm 1$  ko`rinishidagi qo`shish va ayirish xollari.

Qo`shish va ayirish amallarini aniq mazmunini ochishga oid ish 1-10 sonlarini o`rganishga bag`ishlangan birinchi darslardayok boshlanadi. Bu vaqt ichida bolalar ikki to`plamni birlashtirishga doir va to`plam qismini ajratishga doir ko`p mashqlar bajarishadi. Nomerlashni o`rganish jarayonida birinchi o`nlikdagi har bir son o`zidan oldingi songa qo`shishdan hosil bo`lishi yo o`zidan keyingi sonidan birni ayirish yo`li bilan xosil bo`lishi bolalar ongiga etkazilgan edi. Bu bolalarga sonlarning qatordagi tartibini o`shish bo`yicha ham o`zlashtirish imkonini beradi. 10 ichida qo`shish va ayirishni o`rganishga bag`ishlangan birinchi darsdayok 1-10 sonlarini o`rganishda bolalar olgan bilimlarni umumlashtirish kerak va bolalarni songa birni qo`shganimizda sanoqda undan keyin keladigan sonni xosil qilamiz, sonidan birni ayirganimizda qatorda undan oldingi sonni xosil qilamiz, degan xulosaga keltirishimiz kerak. Bu umumlashtirish asosida  $+1$ ,  $-1$  ko`rinishidagi xollar uchun jadvallar tuziladi va bu jadvallarni bolalar tushunib olishlari va xotirada saqlashlari kerak. Ko`rsatmalilikka tayangan holda  $1-1=0$  va  $0+1=1$  ko`rinishdagi qo`shish va ayirish xollari qaraladi.

II bosqich:  $\square+2$ ,  $\square+3$ ,  $\square+4$  ko`rinishdagi xollar uchun xisoblash usullari bilan tanishish.

Bolalarning har biri ustida ishlash bir xil reja asosida olib boriladi.

1) Tayyorgarlik. Bunda sonlarning ikki qo`shiluvchidan iborat tarkibining mos xollari va qo`shish xamda ayirishning o`rganilgan jadval xollari takrorlanadi.

Masalan:  $\square+4$  ni o`rganishdan oldin  $\square+1$ ,  $\square+2$ ,  $\square+3$  xollari takrorlanadi.

2) Mos xisoblash usuli bilan tanishtirish (ya`ni sonni qismlari bo`yicha qo`shish va ayirish usuli bilan).

3) Yangi bilimlarni mustaxkamlash va bu bilimlarni har xil vaziyatda qo`llash.

4) Qo`shishning sonlarning tarkibi va ayirishning mos xollariga to`g`ri keladigan jadval xollarni ongli o`zlashtirish va eslab qolishga doir ishlar.



SHulardan  $\square+2$  va  $\square-2$ ni ko'rib chiqaylik. Bu xolni o'rganishga tayyorga sifatida o'quvchilarni qo'shish va ayirishga oid shunday misollar bilan tanishish kerakki ulardan 1ni 2 marta qo'shish talab qilinsin. Masalan: 4 ta qizil doirachaga oldin bitta ko'k doiracha so'ngra yana bitta sariq doiracha yaqinlashtiriladi. Bu doirachalarni xisoblash uchun 4 ga oldin 1, so'ngra ikkinchi 1ni qo'shiladi, bunda ular oraliq natijalarini ham aytishadi. Beshga birni qo'shsak 6 xosil buladi. 6 ga 1ni qo'shsak 7 chiqadi, yo qisqacha 5 plus 6, 6 plus 1 teng 7. ayirish xam shunday o'rgatiladi:  $4 - 1 = 3$ ;  $3 - 1 = 2$ .

Tayyorgarilikdan so'ng  $\square+2$ ,  $\square-2$  ni usullari bilan tanitirishga o'tiladi.  $4+2=6$ ,  $4+1+1$ ,  $4+1=5$ ,  $5+1=6$ . Buni to'la bo'lmagan ko'rsatmalik asosida tushuntiriladi. O'quvchining 4 ta otkritkasi bor edi. (4 ta otkritkani konvertga soladi) unga yana ikkita otkritka sovga qilindi, uni otkritkasi qancha bo'ldi? Uylab ko'ringki bu 2ta otkritkani oldingi 4 ta otkritga qanday qo'shish mumkin? 4 ga 1ni qo'shamiz; 5 ta bo'ladi. Sungra yana 1 ta otkritka qo'shamiz nechta bo'ladi:  $5+1=6$ .

Xulosa 2 ni qo'shish uchun oldin 2 ni birini so'ngra xosil bo'lgan songa yana 1 qo'shish mumkin. Daftardagi yozuv:

|         |         |
|---------|---------|
| $4+2=6$ | $4-2=2$ |
| $4+1+1$ | $4-1-1$ |
| $4+1=5$ | $4-1=3$ |
| $5+1=6$ | $3-1=2$ |

Bu yerda o'quvchilarni sonlarning mos tarkibini o'zlashtirish uchun egallab olgan bilimlaridan foydalanishga o'rgatish kerak.


*Masalan:*

|         |                  |
|---------|------------------|
| $4+2=6$ | 6 bu 4 va yana 2 |
| $5+2=7$ | 7 bu 5 va yana 2 |
| $7+2=9$ | 9 bu 7 va yana 2 |

Bir necha darsdan so'ng  $\square\pm 2$  jadvali tuziladi.

$$1+2 \quad 3-2$$

$$2+2 \quad 4-2$$



$$\begin{array}{ll} 3+2 & 5-2 \\ 4+2 & 6-2 \\ 5+2 & 7-2 \\ 6+2 & 8-2 \\ 7+2 & 9-2 \\ 8+2 & 10-2 \end{array}$$

Jadval tuzib bo'linganidan so'ng o'quvchilarni qo'shish amali komponentlarning va natijalarning nomlari bilan tanishtiriladi, qo'shiladigan sonlarni qo'shiluvchilar, natijani esa yig'indi deyiladi.

$\square \pm 3$ ,  $\square \pm 4$  xollar uchun xam xisoblash usullari shu reja asosida o'rgatiladi:

| 4+3   | 6-3   | 6-3   | 4+3   |
|-------|-------|-------|-------|
| 4+2+1 | 6-1-2 | 6-2-1 | 4+1+2 |
| 4+2=6 | 6-1=5 | 6-2=4 | 4+1=5 |
| 6+1=7 | 5-2=3 | 4-1=3 | 5+2=7 |


Bir necha darsdan so'ng  $\square \pm 3$  jadvali tuziladi:

|        |        |                                           |       |       |
|--------|--------|-------------------------------------------|-------|-------|
| 1+3=4  | 4-3=1  | 5+4                                       | 5+4   | 5+4   |
| 2+3=5  | 5-3=2  | 5+2+2                                     | 5+1+3 | 5+1+1 |
| 3+3=6  | 6-3=3  | 5+2=7                                     | 5+1=6 | 5+3=8 |
| 4+3=7  | 7-3=4  | 7+2=9                                     | 6+3=9 | 8+1=9 |
| 5+3=8  | 8-3=5  | So'ngra $\square \pm 4$ jadvali tuziladi. |       |       |
| 6+3=9  | 9-3=6  |                                           |       |       |
| 7+3=10 | 10-3=7 |                                           |       |       |

III bosqich:  $\square + 5$ ,  $\square + 6$ ,  $\square + 7$ ,  $\square + 8$ ,  $\square + 9$  lar uchun xisoblash usullari bilan tanishish.

Bu xollar uchun yigindining urin almashtirish xossasidan foydalaniladi. Yigindining urin almashtirish xossasi barcha karalayotgan xollarni ilgari o'rganilgan xollarga keltirishga yordam beradi. Bolalarni qo'shishning urin almashtirish xossasi bilan tanishtirishni amaliy ishlardan boshlash mumkin:

$$\begin{array}{llll} 4+3=7 & 3+4=7 & 5+3=8 & 3+5=8 \end{array}$$



